



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 13 - sentabr

VI-65-181-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2020-yil 25-sentabrdagi PF-6074-sonli farmoni ijrosi yuzasidan “Surxondaryo suv ta'minoti” MChJ Angor tuman filiali boshlig‘ining hisoboti haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-sonli farmoni ijrosi yuzasidan “Surxondaryo suv ta'minoti” MChJ Angor tuman filiali boshlig‘ining xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga bergen hisobotini ko‘rib chiqib, bildirilgan takliflarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6074-sonli farmoni ijrosi yuzasidan “Surxondaryo suv ta'minoti” MChJ Angor tuman filiali boshlig‘i I.Raximovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinnbosari U.Raxmatov hamda “Surxondaryo suv ta'minoti” MChJ Angor tuman filiali boshlig‘i I.Raximov bilan birgalikda ushbu sohadagi mavjud muammolarni o‘z vaqtida hal qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 2020-yil 25-sentabrdagi PF-6074-sonli farmonida belgilangan vazifalarning sifatli ijro etilishi bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- aholiga ichimlik suvini toza va sifatli uzluksiz yetkazib berish;

- oqova suv xizmati sifatini yaxshilash, oqova suv tarmoqlarini o‘z vaqtida va sifatli ta’mirlash ishlarini olib borish;
- iste’molchilarga yetkazib berilgan ichimlik suvi bo‘yicha hisob-kitoblarni belgilangan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash;
- yangi iste’molchilarni qamrab olish hamda aholi iste’molchilari tomonidan to‘lovlardan amalga oshirilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

3. “Surxondaryo suv ta’minot” MChJ Angor tuman filiali boshlig‘i I.Raximovga:

bir oy muddatda suv ta’minoti va oqova suv xizmati sohasida ma’lumotlar bazasi shakllantirish, unga ko‘ra har bir mahalla kesimida suv bilan ta’minlangan aholi, abonentlar, shu jumladan hisoblagich o‘rnatilgan abonentlar soni, suv yo‘qotish darajasi, pul undiruvi, mavjud debitor va kreditor qarzdorlikni qisqartirish rejasini ishlab chiqish;

ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv sohasida investitsiya loyihamalarini saralash, amalga oshirish hamda ularning natijadorligini monitoring qilish bo‘yicha loyiha takliflarini Xalq deputatlari tuman Kengashida muhokama qilish uchun kiritish;

loyihaning bajarilishi holatini muntazam ravishda tuman Kengashi deputatlari bilan joylarga chiqqan holda monitoringini amalga oshirish;

mazkur qaror ijrosini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan joriy yilning ikkinchi choragi yakuni bilan Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati va “Angor yog‘dusi” gazetasi (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida tahliliy hamda tanqidiy ruhda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, communal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari U.Raxmatov hamda nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining sanoat, transport, qurilish, communal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Sadatov) zimmasiga yuklansin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov